

## **TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Abdullayeva Nasiba Jo‘rayevna  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudova Feruzaxon Abduraxmon qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika  
va psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada motivatsiyaning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, talabalar kasbiy motivatsiyasining shakllanishi, kasb tanlashdagi gender farqlar yoritilgan. Motivatsiya, kasbiy motivatsiya va motiv tushunchalari, olimlarning ta’riflari, ularning muhim jihatlari o‘rganilgan. Bu sohada olib borilgan empirik tadqiqotlar natijalari berilgan.

**Kalit so‘zlar:** motivatsiya, kasbiy motivatsiya, motiv, maqsad, faoliyat, motivatsion tayyorlik, kasbiy tayyorgarlik.

**Аннотация:** В данной статье описано значение мотивации в образовательном процессе, формировании профессиональной мотивации студентов, а также гендерные различия в выборе профессии. Изучены понятия мотивации, профессиональной мотивации и мотива, определения ученых, их важные аспекты. Представлены результаты эмпирических исследований, проведенных в этой области.

**Ключевые слова:** мотивация, профессиональная мотивация, мотив, цель, деятельность, мотивационная готовность, профессиональная подготовка.

**Abstract:** This article describes the importance of motivation in the educational process, the formation of students' professional motivation, and gender differences in choosing a profession. Concepts of motivation, professional motivation and motive, definitions of scientists, their important aspects are studied. The results of empirical studies conducted in this area are presented.

**Key words:** motivation, professional motivation, motive, goal, activity, motivational readiness, professional training.

Bugungi ta’lim jarayonida, talabaga nafaqat bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘rgatish, balki shaxsning xususiyatlari va individualligini shakllantirish hamda uning ta’limga nisbatan ehtiyojlari va motivlari tizimini rivojlantirish kerak, bu ta’lim jarayonining natijasini aks ettiradi va o‘z navbatida, ta’lim sifatining ko‘rsatkichini ham belgilaydi.

Pedagogika va psixologiyada shaxsning kasbiy motivatsiyasini o‘rganish, avvalo, motivatsiyaning umumiy nazariy yondashuvlariga keyin esa kasbiy va mehnat faoliyati nazariyalarining kontseptual mezonlariga asoslanadi.

Motivatsiya hamda motiv tushunchalari haqida juda ko‘plab olimlar o‘z ta’riflarini berganlar va ularning har biri o‘zicha to‘g‘ri hisoblanadi. Motiv bu insonni hayot faoliyati bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, inson shug‘ullanayotgan xilma – xil faoliyat turlari aynan uning motivlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, inson biror kasbni egallashi uchun uni shu kasbga intiltirib turuvchi motivlar, qiziqishlar bo‘lishi zarur bo‘ladi. Bundan ko‘rinib

turibdiki, insonni faoliyati uning shu faoliyatga yetaklab boruvchi motivlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Demak, inson shug‘ullanayotgan faoliyat uning ehtiyojlari va undan kelib chiqqan holda faoliyatga undovchi motivlardan kelib chiqishini ko‘rsatadi. Shunday qilib motiv – faoliyatga undovchi, maqsad esa – insonni ma’lum bir faoliyat bilan shug‘ullanish orqali o‘z ehtiyojlarini qondirishni vujudga keltirish hisoblanadi. Kasb tanlash jarayonida shaxsning anglangan motivlari uni ma’lum bir kasbni aniq tanlab olishiga sabab bo‘ladi. Har bir shaxs kasbni tanlash va kasbiy rivojlanish davomida maqsadlaridan kelib chiqqan holda yaqin, qisqa va uzoq davom etadigan motivlarga duch keladi.

Demak, motivatsiya xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni hamda motivlar yig‘indisidir. Amerikalik psixolog Benjamin Lahey motivatsiyani kimnidir harakatga keltiradigan ilhom sifatida ta’riflaydi. Rus psixologi I. A. Zimnyaya esa motivatsiyani Insonning har qanday faoliyatini ishga soluvchi mexanizm deb hisoblaydi. Shu kabi olimlar fikrlaridan kelib chiqib, bizning fikrimizcha motivatsiya insonda biror harakatni amalga oshirish uchun kuchli ishtiyoq va xohishning qo‘zg‘alishidir.

Motivlar birinchidan, o‘quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo‘l va usullar tanlashga yordam beradi. O‘quv faoliyatida o‘quv motivlari talabalar tomonidan tanlanib, ular talabaning maqsadi, qiziqishi, kelajak rejalari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

E.P.Ilinn qizlar va o‘g‘il bolalarda motivlarning ahamiyatidagi farqlarni ta’kidlaydi: qizlar ko‘pincha kasbning katta ijtimoiy ahamiyatini, uni qo‘llash doirasining kengligini, yirik shaharlarda va ilmiy markazlarda ishlash imkoniyatini, talabalarining badiiy havaskorlik faoliyatida ishtirok etish istagini va kasbning yaxshi moddiy ta’minlanganligini inobatga olishlari, lekin bizning mentalitetimizda qizlarga ko‘proq kasb bo‘yicha topiladigan ishning o‘zi yashab turgan mintaqada ish topishning osonligi, qulayligi, yaxshi moddiy ta’minlanganligi, o‘zi yashab turgan oilaning ijtimoiy muhitiga mos kelishi asosiy ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomondan, yigitlar ko‘pincha tanlangan kasbi ularning qiziqishlari va moyilliklariga, oilaviy an’analarga ham mos kelishi muhimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz kasbiy motivatsiyani kasbga taalluqli bo‘lgan vazifalarni bajarish va kasb tanlashni belgilovchi, atrof, borliq omillari, kasbga yo‘naltirishga oid faoliyat ta’sirida shakllanuvchi mayl ekanligini anglaymiz.

Kasbiy motivatsiya nafaqat kasbiy yo‘lni to‘g‘ri tanlangani va mehnatga oid faoliyat mahsuldorligini, o‘z mehnatining natijalarini qondirish darajasini, balki kasbiy ta’limning muvaffaqiyatini belgilaydi. Bu fakt shu bilan tushuntiriladiki, tahsilning samarali jarayoni, kamida ikkita omil – kognitiv sohalar va shaxs motivatsion sohasining rivojlanish darajasi bilan shartlangan.

Yuqori darajadagi o‘quv motivatsiyasi o‘z navbatida kasbiy motivatsion rivojlanishga xizmat qiladi. Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligining asosiy va eng murakkab tomoni - mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Mutaxassis ruhiyatining motivatsion tayyorgarligi kasbiy tayyorgarligining asosiy komponentlaridan biridir. Bunga mutaxassis shaxsining motivatsion tayyorligining asoslari, o‘z kasbi mutaxassisligini tushuna olishi, o‘zida pozitiv munosabatni tarkib toptira olishi, o‘zini baholay olishi, bilish faoliyatiga qiziqishlari hisoblanadi. Oliy o‘quv yurti sharoitlarida mutaxassisni tayyorlashda kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorligi talabalarining kasbiy va

shaxsiy rivojlanishiga ta’lim olish jarayonida o’zini rivojlantirishga mavjud motivatsion doiraning yo’naltiriganligida namoyon bo’ladi.

Motivatsiyaning 2 turi mavjud: ichki hamda tashqi.

1. Ichki motivatsiya bu muayyan vaziyatga duch kelganda tug‘ma yoki genetik jihatdan oldindan belgilab qo‘yilgan moyillikni vujudga keltiruvchi ichki kuch yoki motiv bo‘lib, ushbu turdagi motivatsiya insonda o‘ziga ishonch va o‘z kompetensiyalarini his qilishga olib kelishi mumkin. Bunday motivatsiyaga ega talaba ichki turtki bo‘lganligi sababli biror vazifani bajarishdan zavq oladi. Har qanday ishning, kasbning o‘ziga yarasha qiyinchiliklari bor, bulardan muommosiz o‘ta olishga esa albatta insonda o‘zining kasbiga bo‘lgan muhabbat va ichki motivatsiyasi bo‘lishi katta rol o‘ynaydi.

2. Tashqi motivatsiya: tashqi yoki atrof-muhit omili tufayli talaba harakatga keltiriladi. Rag‘batlantiruvchi o‘sha shaxsning xulq-atvorini maqsadga yo’naltiradi. Tashqi motivatsiyaga ega bo‘lgan talaba mukofot olish yoki qandaydir jazolardan qochish maqsadida harakatni amalga oshiradi. Masalan, imtihonga qattiq tayyorlangan talaba yaxshiroq baho olish istagida shunday qilgan. Ta’lim tizimida tashqi mukofotlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak, chunki ular ichki motivatsiyasining pasayishiga ham olib kelishi mumkin.

Yuqori darajadagi o‘quv motivatsiyasi o‘z navbatida kasbiy motivatsion rivojlanishga xizmat qiladi. Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligining asosiy va eng murakkab tomoni - mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Mutaxassis ruhiyatining motivatsion tayyorgarligi kasbiy tayyorgarligining asosiy komponentlaridan biridir. Bunga mutaxassis shaxsining motivatsion tayyorligining asoslari, o‘z kasbi mutaxassisligini tushuna olishi, o‘zida pozitiv munosabatni tarkib toptira olishi, o‘zini baholay olishi, bilish faoliyatiga qiziqishlari hisoblanadi. Oliy o‘quv yurti sharoitlarida mutaxassisni tayyorlashda kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorligi talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ta’lim olish jarayonida o’zini rivojlantirishga mavjud motivatsion doiraning yo’naltiriganligida namoyon bo’ladi.

Bu borada bir qator empirik tadqiqotlar o‘tkazilgan. Masalan, rus psixologi A.Rean o‘z tadqiqotlaridan birida quyidagi xulosaga keladi: Talabalar guruhida umumiy intellekt shkalasi bo‘yicha test o‘tkazganda va mazkur testlashni o‘qishga oid o‘zlashtirish darajasi bilan solishtirganda aniqlandiki, intellektning o‘qishga oid o‘zlashtirish bilan na maxsus predmetlar bo‘yicha, na umumta’lim fanlarining bloki bo‘yicha hech qanday ahamiyatli aloqasi yo‘q.

Bu fikr boshqa tadqiqotlarda ham o‘z tasdig‘ini topdi. Yana bitta ahamiyatli qonuniylik aniqlandi: “kuchli” va “zaif” talabalar intellekt darajasi bo‘yicha emas, balki o‘qishga oid faoliyat motivatsiyasining kuchi, sifati va turi bo‘yicha farq qilarkanlar. “Kuchli” talabalar uchun ichki motivatsiya kuchli: ularga kasbni yuqori darajada o‘zlashtirish xos bo‘lib, mustahkam bilim olish va amaliy malakalarga ega bo‘lishga mo‘ljalladilar. “Zaif” talabalarga kelsak, ularning motivlari asosan tashqi, vaziyatli: bunday talabalar uchun, birinchi navbatda, yomon o‘qishlari uchun muhokama qilish va jazolashdan, stipendiyadan mahrum bo‘lmaslikdan va h.k. dan qochish muhim. Agar kasbiy motivatsiya tuzilmasi haqida gapiradigan bo‘lsak, bu erda kasbga ijobiy munosabat o‘ta muhim rol o‘ynaydi, chunki bunday munosabat ta’limning yakuniy maqsadi bilan bog‘liq. Boshqacha aytganda, agar talaba kasbini ongli tarzda tanlagan bo‘lsa va uni o‘ziga bo‘lganiday jamiyat uchun ham ahamiyatli deb hisoblasa, bu, shubhasiz, kasbiy tayyorgarlik natijalariga o‘zining ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. F. R. Abduraxmonov, Z. E. Abduraxmonova Kasb psixologiyasi. Toshkent-2018. - 178-179 b.
2. O‘. M. Arziqulov Talabalar o‘quv motivatsiyasi muammosining dolzarbligi. iqro jurnali. 2-son. 2023
3. J. Iskandarov, Sh. Iskandarova Yoshlarda kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning psixologik jihatlari eurasian journal of social sciences, philosophy and culture 13-son. 2022
4. F. A. Maxmudova Ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quvchi va talabalar motivatsiyasini oshirishning ahamiyati. journal of new century innovations. 1-son. 2024
5. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/5444/3633/3568>